


Samarqand davlat universiteti
Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
402-guruh talabasi

REFERAT

- Bajardi: Dusmatova Z
- Tekshirdi: O'razova R
- Samarqand - 2017

MAVZU: Integratsiya usullari haqida tushuncha

REJA:

1. An'anaviy ta'limdagi integrativ yondashuvlar;
 2. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalangan ta'limni amalga oshirish metodikasi;
 3. Integratsiya o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashga yangi yondasguv;
 4. Integrativ kurslarning kelib chiqishi.
- 




- I. 80-yillarning 2-yarmidan boshlab, an'anaviy ta'limdagi integrativ yondashuvlar yetakchi rol o'ynay boshladi.

Bunda an'anaga ko'ra 4 asosiy yondashuvdan foydalanildi:

- 1. Alohida predmetlarni yagona integrativ kursga birlashtirish;
- 2. Barcha ijodiy fanlarni rivojlantiruvchi paradigma asosida o'rganish;
- 3. Ta'lim jarayonini kompyuterli asosga o'tkazish;
- 4. Darslardagi o'quvchilar bilan bo'ladigan kommunikativ muloqotning barcha pedagoglar uchun bir xil bo'lgan usulini qo'llash.



- 
- Boshlang'ich sinflarda fanlarni integratsiyalash dars samaradorligini oshiradi.

Vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi.

Darsni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi.


- 
- Bo'sh vaqt orttiriladi va to'garaklarga jalb etiladi.

Boshlang'ich ta'limda Ona tili, o'qish, tabiat, tasviriy san'at darslarini


integratsiyalash mumkin. Masalan:



“O'zbekiston mening Vatanim” mavzusini o'tish uchun mavzu tushuntiriladi.



Tabiiy boyliklar va ularni qadriga yetish ko'rib chiqiladi.



Bu esa bolani mavzuga yaxshi tushunib olishiga yordam beradi. Kengroq va chuqurroq tushunishiga imkoni ortadi. Uzoq vaqt yodda saqlashiga yordam beradi. Ona tili, o'qish, matematika darslari integratsiya qilinsa yaxshi natijaga erishiladi.

Bunda ham o'quvchi darsni yaxshi tushunadi. Masalan: Bog'da o'quvchilar 1-kuni 35 kg, 2-kuni 45kg olma terishdi. Bu masala asosida mevalar rasmini chizishlari mumkin.

Bola bir darsning o'zida ham kuz fasli haqida o'rganadi, mevalar haqida biladi

■ va rasm chizadi.


Kuz mevalari haqida rasm chizib, masalani yechadilar. Shunday qilib, o'quvchilar birgina integratsiya darsida juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi. Fanlarni integratsiya qilib, dars o'tilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak.


Har bir dars muayyan maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart.

Sinf o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo'llarini aniqlash mumkin.

Umuman olganda, integratsiya darsi bir-biriga mos kelishi, puxta reja asosida tuzilgan bo'lishi kerak.





Bir o'quv predmetida bir-biri bilan chegaradosh fanlarni, yirik g'oyalar, omillar, xulosalarni cheklab birlashtiradilar.

Masalan: tarix kursining integrativligi uning arxeologiya, etnografiya, san'atshunoslikka tegishli dalil va nazariy xulosalarni o'z ichiga oladi.

Umumiy o'rta ta'lim mazmunini shakllantirish barcha maktab predmetlarini o'qitishni insoniylashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarni kuchaytirishni ta'minlashga qaratilgan.

Jamiyatshunoslik, tarix, o'qish sinfdan tashqari o'qish, musiqa, tasviriy san'at jamiyatimizning chuqur insonparvarlik ruhida

Tarbiyalashda tabiiy-matematik fanlar sikli muhim rol o'ynaydi.


Umumiy ta'lim mazmuni o'quvchilarni har tomonlama ruhiy rivojlanishiga, ularga turli xil tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan.

Har bir o'quv predmetini o'rganish bolaning materialni anglash jarayonini uno eslab qolishi, ta'sirchanlikni oshirish, tafakkurni, nutq va tasavvurni rivojlantiruvchi ruhiy diqqatni yaratish imkonini beradi. Ayniqsa, bilish jarayonida bir-biri bilan uzviy aloqada bog'liq bo'lgan tafakkurning turlarini rivojlantirish juda muhimdir.

Tajribaga asoslangan tafakkur umumlashtirish va xulosalar uchun tirik mushohada, dastlabki ma'lumotdan yig'ish vazifalarini bajaradi.

U bolalarni real voqealarni, hodisalarni o'qishga, ularni qayd qilish va yig'ishga o'rgatadi.

Abstrakt tafakkur ajratib olingan voqea, hodisalarda ularning mohiyatini ko'ra bilishga, aniqlashga imkon beradi. O'quv predmeti mazmunini tuzish pedagog amaliyot shu fanning asosiy kategoriya, tushunchalarning rivojlanishi mantiqini hisobga oladi. Shu bilan birga o'qituvchi va psixologlar o'quvchilar tomonidan materialni o'zlashtirishning yosh xususiyatlarini hisobga oladilar.



Shu bilan birga o'qituvchi va psixologlar o'quvchilar tomonidan materialni o'zlashtirishning yosh xususiyatlarini hisobga oladilar. San'at sohasidagi umumiy o'rta ta'lim mazmuni o'z ichiga g'oyaviy tomoni va to'kis badiiy shakli birligini hosil qiluvchi asarlarni o'z ichiga oladi.

Mehnatni fan bilan maktabda o'rganiladigan o'quv predmetlari bilan uzviy bog'lash mumkin hamda mehnatning o'quv-ijodiy xususiyati ilmiy bilimlardan foydalanish jarayoni orqali amalga oshiriladi va nihoyat bolalar mehnatining mazmuni va tashkil etishni aniq mahalliy ishlab chiqarish, xalq xo'jaligi ehtiyojlariga tayangan holda zamonaviy kasblar asosida tuzish kerak.



O'quv jarayonida integratsiyalangan ta'limdan foydalanishga katta ahamiyat berilyapti.

Predmetlar aro aloqalarini amalga oshirish-integratsiya turlaridan biridir.

Toshkentdagi 41-maktab o'qituvchisi bolalar nutqini o'stirish uchun tabiatshunoslik, o'qish, husnixat, matematikadan foydalaniladi.

ADABIYOT RO'YHATI:

- 1. WWW.geogle.uz
- 2. WWW.ziyonet.uz
- 3. WWW.arxiv.uz
- 4. Mavlonova R.A,
Rahmonqulova N.H
“Boshlang'ich ta'limning
integratsiyalashgan
pedagogikasi”.

